

PRAGMALINGVISTIKA NIMANI O'RGANADI?

*Asrorova Zarnigor Zulfiqor qizi**Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti o'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi
shahribonumuqimova50@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning bir bo'limi bo'lgan pragmalingvistika haqida, u nimani o'rganishi, bugungi kundagi ahamiyati va so'zlovchining voqelikka, til birliklariga (leksema, affiks, grammema, sintaktik qurilma) mustahkam bog'liq ekanligini haqida aytib o'tiladi. Qolaversa, pragmalingvistikaning maqsad va vazifalari haqida ham ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: pragmalingvistika, pragmatika, lisoniy munosabat, pragmatik struktura, pragmatik qobiq, muloqot, adresat, grammema, sintaktik qurilma, kommunikatsiya, pragmastilistika, pragmatik yo'nalish, lingvopragmatika.

Abstract. In this article, I will talk about pragmalinguistics, a branch of modern linguistics, what it studies, its importance today, and the speaker's strong connection to reality, language units (lexema, affix, gramme, syntactic device). wished In addition, information is provided about the goals and tasks of pragmalinguistics.

Key words: pragmalinguistics, pragmatics, linguistic attitude, pragmatic structure, pragmatic shell, communication, addressee, grammeme, syntactic device, communication, pragmastylistics, pragmatic orientation, linguopragmatics.

Абстракт

В этой статье я расскажу о прагмалингвистике, отрасли современной лингвистики, о том, что она изучает, о ее важности сегодня, о прочной связи говорящего с реальностью, языковых единицах (лексема, аффикс, грамматика, синтаксический прием). Кроме того, предоставляется информация о целях и задачах прагмалингвистики.

Ключевые слова: прагмалингвистика, прагматика, языковая установка, прагматическая структура, прагматическая оболочка, коммуникация, адресат, граммама, синтаксический прием, коммуникация, прагмастилистика, прагматическая направленность, лингвопрагматика.

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikka doir tadqiqotlarda e'tirof etilishicha, kuzatuv markazida doimo inson, lisoniy shaxs turadi, til esa uning muhim tavsifi hisoblanadi. Til o'z navbatida faoliyat tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Shu ma'noda tilga tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan bo'lgan pragmalingvistikaning asosida yotuvchi faoliyat sifatida qaraladi.

Pragmatika aslida falsafiy tushuncha bo'lib, yunoncha «ish», «faoliyat» ma'nolarini bildiradi, shuningdek, uning lug'aviy ma'nosi amaliy ish mazmuni bilan aniqlanadi. Demak, fan sifatida pragmatikaning mundarijasini til belgilarining funksional jihatdan nutqning u yoki bu ko'rinishida qo'llanishi tashkil etadi. Uning mazmuni esa kommunikatsiya jarayonida fikr ifodalash va uni anglash, tushunish mezonlariga muvofiq tarzda namoyon bo'lishidir.

Sh.Safarov ta'kidlaydiki, lisoniy faoliyatning pragmatik xususiyatlari, bu xususiyatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish tilning ijtimoiy mohiyatini aniqlash uchun muhimdir. Bu lisoniy muloqotning ijtimoiy va ruhiy-psixologik qonuniyatlar bilan moslashgan holda ro'yobga chiqishini va shu asnoda til tizimi rivojlanishini tasdiqlovchi dalillar topish imkonini beradi. Til tizimi taraqqiyotining boshlang'ich nuqtasi (davri) pragmatikadan boshlanadi. Nutqiy muloqot doimo o'zgarib turuvchi va rivojlanib boruvchi dinamik xususiyatga ega. Kommunikativ maqsadning qanday ekanligi, nutq kimga qaratilganligi va qanday sharoitda amalga oshayotganligi muloqot xarakterini belgilab beradi. Bunda so'zlovchi shaxsning yoshi, ijtimoiy mavqeyi, jinsi, bilimi, tajribasi muhimdir. Bular so'zlovchining subektiv munosabatini ifodalash uchun til birliklarining nutqiy vaziyatga xos va maqbul bo'lgan ko'rinishlarini tanlash hamda o'z kommunikativ maqsadiga bo'ysundirilgan holda qo'llashiga imkoniyat yaratadi.

Muloqot vaziyatlari beqaror bo'lib, pragmatik struktura soddalikdan murakkablik tomon siljib, pragmatik qobiq ham shunga mos holda kengayib boradi. Shuning uchun lisoniy tahlilda pragmatik tamoyillarga suyanish ko'zlangan natijani berad.

Pragmatika doirasida so'zlovchi subyekt va nutq qaratilgan shaxs, ya'ni eshituvchi subyekt, xabar yuboruvchi – adresant va xabarni qabul qilib oluvchi – adresat, ularning kommunikatsiyada o'zaro bog'lanishi, munosabatlari, aloqa qilish, muloqot vaziyatlari bilan bog'liq masalalar yig'indisi ham kiritilgan. O'zaro muloqotda qo'llanuvchi munosabat ifodalovchi so'zlar nutq qaratilgan shaxsga ta'sir etishga ma'lum darajada funksional jihatdan xoslangan bo'ladi. Bunday lisoniy birliklarning murakkab tabiati muloqot nazariyasiga pragmatikaning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida qarashni taqozo qiladi. Mavjud aloqa jarayonini modellashtirish hamisha pragmatik yo'nalish bilan bog'lanadi.

Shu tufayli mulohaza, fikr ifodalashning ochiq(eksplitsit) va yashirin(implitsit) ko'rinishlari (Dj. Ostin fikriga ko'ra «illokutiv kuchlar»), so'zlashuv taktikasi va so'zlashuv xarakteri, ifodaning pragmatik mazmuni (ko'chma ma'nolar, ishoralar, istioralar, shamalar, qochirimlar va hakoza), adresatga ta'siri kabilar lingvistik pragmatikaning tadqiqot obekti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuni qayd etish lozimki, hozirga qadar pragmalingvistikaning mundariyasi, o'ziga xos terminologiyasi qat'iy belgilab olingan bo'lmasa-da, uning fan sifatida paydo bo'lishi va shakllanishi inson omiliga bog'liq ekanligi fanda e'tirof etilmoqda.

Pragmatika keng qamrovli fan sifatida inson nutqiy faoliyati bilan bog'liq bir qator masalalar, xususan, kommunikativ sintaksis, nutq va nutq faoliyati nazariyasi, tipologiyasi, kommunikatsiya va funksional uslublar nazariyasi, sotsiolingvistika nazariyasi, psixolingvistika nazariyasi, diskurs nazariyasi, ritorika va stilistika doiralarida ko'p asrlik tarixga ega bir qator muammolarni o'z ichiga qamrab oladi. Tilshunoslikning bugungi kundagi taraqqiyoti mezonlari nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, pragmatika inson nutqiy faoliyatiga aloqador sohalarni birlashtirib turuvchi va ular bilan bog'liq masalalardan bahs yurituvchi zamonaviy lingvistikaning mustaqil sohasi ekanligi ma'lum bo'ladi. Buni quyidagi sxemada

ko'rish mumkin. Tilshunoslikda tilni pragmatik nuqtai nazardan o'rganishga qaratilgan turli yo'nalishdagi tadqiqotlarni bir umumiy maxrajga keltirsak, ular o'rtasida o'zaro o'xshash tomonlar mavjudligi ma'lum bo'ladi. Ular quyidagilar:

1) pragmalingvistika bo'yicha olib borilgan barcha tadqiqotlarda til, inson nutqiy faoliyati haqida fikr yuritilganda, faoliyat asosiy tushuncha sifatida e'tirof etiladi;

2) til kommunikatsiya jarayonida birgina aloqani ta'minlab qolmay, muloqotchilarning dinamik xarakterdagi o'zaro munosabatini ko'rsatuvchi vosita hisoblanadi;

3) til birliklarining nutqning u yoki bu ko'rinishi uchun uslubiy xoslanishi va qo'llanishi avvalo, nutqiy vaziyat va ijtimoiy-ruhiy holatlarni ifodalovchi kontekst bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Bugun pragmalingvistika keng ma'noda tushuniladi. Bu haqda Yu.D.Apresyan pragmatika so'zlovchining voqelikka, xabarning tuzilishiga, adresatga munosabati, til birliklariga (leksema, affiks, grammema, sintaktik qurilma) mustahkam bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Professor Sh.Safarov «pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, unda muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi - deb izohlab, lingvistik pragmatikaning nutq subekti, nutq obekti, nutq vaziyati bilan bog'liq xususiy masalalarini belgilab beradi. Demak, pragmatik tilshunoslik tadqiq predmeti nutqiy akt nazariyasi, deysis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi sohalarining shakllanishiga zamin yaratdi. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, lingvistik pragmatikaning maqsadi «kontekstda tilni o'rganish» – ijtimoiy, situativ va boshqa shu kabilarda tilni kommunikatsiya vositasi sifatida tadqiq etishdir. Pragmatik nazariya va amaliyoti chegaralarining haligacha to'liq belgilanmaganligi lingvopragmatikaning gumanitar (xususan, lingvistik) doiralarga xos bo'lgan nutqiy aktlar nazariyasi, diskurs-tahlil, shuningdek, sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixo-lingvistika, antropologiya va boshqalar bilan o'zaro ta'sirda ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda semantika bilan til pragmatikasi o'rtasidagi chegarani belgilash ko'plab ilmiy munozaralarning asosiy mavzusi hisoblanadi. Darhaqiqat, «Semantika masalalarini o'rganish kuchaygan bir paytda pragmatikaga e'tibor berilishi bejiz emas. Chunki, semantikaning tekshirish ko'lami g'oyat kengayib ketgani tufayli, uni bir oz engillashtirishga, ma'noning kontekst bilan bog'liq qismidan xalos qilishga to'g'ri keldi. Natijada pragmatika semantikadan ajralib chiqdi»

Inson tafakkuri voqelikni tilda aks ettirib, subektivlik kasb etadi va insonning idrok etish faoliyatining murakkab xarakterda ekanligini ko'rsatadi. Subektivlik insonning real dunyoni idrok etishiga, olam manzarasining qanday ko'rinishda ifodalanishiga, tashqi olamning til tizimida aks etish jarayoniga ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баранов А.Г. Текст в функционально прагматической парадигме. Учебное пособие,- Краснодар, 1988- 90 с. Бегматов Э. Нотикнинг нодир бойлиги. - Т., 1980.
2. Колтунова М.В. Конвенции как прагматический фактор диалогического общения // Вопросы языкознания, 2004, № 6 .-С. 100-115.
3. Нурмонов А., Иўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. - Тошкент: "Шарк", 2001. - 160 б.
4. Нурмонов А., Ҳакимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Узбек тили ва адабиёти, 2001, 4-сон. 54-58 б